

**MUNIS DEVONINING TARKIBIY QISMI VA MUMTOZ  
ADABIYOTDAGI AHAMIYATI**

*Niyozov Kamol Komilovich*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti*

*Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi*

*Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi*

*2-kurs magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shermuhammad Munis Xorazmiyning devoni “Munis ul-ushshoq”ning tarkibiy qismi va mumtoz adabiyotdagi ahamiyati haqida ma’lumot keltirildi.

**Kalit so’zlar:** tazod, talmih, tashbeh, Navoiy, Ravzat us-safo, Firdavs ul-iqbol

**KIRISH**

Munis zamonasining mashxur olim, shoir va san’atkorlari bilan yaqin aloqada bo‘lib, bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini she’riyatga, ilm-fan va ma’rifatga bag‘ishlagan. Munis 1804-yilda birinchi she’rlar devoni — „Devoni Munis“ni yaratgan. 1806-yilda Eltuzarxon Munisga Xiva xonligi haqida kitob yozishni topshirgan. Munis o‘z asarini Sherg‘ozixon davrigacha yozib yetkazganda, Eltuzarxon fojiali halok bo‘ladi. Munis kitobini davom ettiradi va 1819-yilda Mirxondning „Ravzat us-safo“ („Soflik bogi“) tarixiy asarini turkiy tilga tarjima qilishni boshlaydi. Munis bu asarning 1jildini tarjima qilishga ulguradi. U bu ikki asarni ham tugata olmay vafot etadi. Uning „Firdavs ul-iqbol“ („Baxtlar bogi“) asarini va „Ravzat ussafo“ tarjimasini shogirdi Ogahiy nihoyasiga yetkazadi.

**ASOSIY QISM**

Muxammad Raximxon hukmronligining yettinchi yili (1813) Munis o‘z she’rlarini to’plib, „Devon“ tartib bera boshlaydi. Devonga kiritilgan she’r turlari va baytlarning soni xaqida shoirning o’zi ‘Munis ul-ushshoq’ning debochasida quyidagilarni yozadi: “Qasidalar, dilkusho g’azallar, fasaxotoyin tarkibbandilar, latofat ta’yin qit’alar, sharif musoddas va muxammaslar, latif ruboiy va muammolar, shirin masnaviy va tangin tuyuq va g’ayr taxminan olti ming baytdur”. Klassik poeziyaning xilma-xil turlari bo‘yicha yaratilgan baytlarni o‘z ichiga olgan ana shu “Munis ul-ushshoq” devonining qo’lyozma va ikki tosh bosma varianti bor. Hijriy 1297 yilda (milodiy 1879 yilda) Xivada Matbai Xurshidda nusxaning xajmi 668 saxifadan iboratdir. «Munis, ul-ushshoq” devoni avtorining o‘zbek adabiyoti xazinasiga qimmatbaho durdonalar qo’shish yo’lida, she’r san’ati ustida qanday ishlanganini: she’rlarining tematik doirasini, g’oyaviy mazmunini, badiiy saviyasi qanday ekanini, klassiklardan yoki zamondoshlaridan kimlar unga ustodlik va xomiylig qilganini umumiyl tarzda bo’lsa

xam, shu devonning 18 she'rida ko'rish mumkin. She'riyatga nihoyatda qiziqish, Nizomiy, Jomiy merosini o'rganish, Ansariy, Hoqoniy merosidan fayz topish, Sa'diy va Anvariylar bilan tabni ravshanlatish, Iroqiyning ishqiy baytlariga mexr qo'yish, ulardan ma'no o'rganish, ruxini o'z ijodiga xomiy deb bilish va nihoyat o'z zamondoshi-ustozi Mavlona Kiromiy qo'lida tarbiyalanish Munisning shoirlilikda kamol topishiga sabab bo'lgan edi.

Ma'lumki, Munisning xayoti Xiva xonligida saroy doirasi bilan bog'langan holda o'tdi. Lekin u saroy muhitida yashagan bo'lsada, o'zining fikr-xayoli bilan xalq tomoniga intilib, ish olib borgan davrda, hukmron doiralardan norozi edi. U o'zining ana shu peroziligini ifodalovchi she'r va qit'alar yaragan, ba'zan esa ishqiy lirik g'azallari ichiga norozilik ruxidagi fikrlarini qistirib ketgan. Chunonchi Munis:

Ne muruvvat ko'z tutar sen charxi dundin kim, qilur,  
Xasm otoni o'gluga, o'glin atodin boshqalab.

Baytida otani o'g'ilga va o'g'ilni otaga qarshi qilib qo'ygan "charxi dundan nolisa. quyidagi baytlarida kishilar o'rtasidagi oshnalik, vijdon va axdu-paymon pul va davlat bilan o'lganini fosh etadi: mexnat va xunar axlining g'oyat xor-zor, aybsiz aybdor bo'lib qolganlariga qayg'uradi. Shoirning tojikcha g'azallarining ayrim baytlarida xam shunday norozilik motivlarini uchratish mumkin

Zabon bakom kashidam ba muqtazam xomushi,  
Vagama shikval ayyomro nixoya nadoran  
(sukut saqlab, tilimni tanglayimga tortdim, xo'ja, zamonadan shikoyatlarimning axiri yo'qdur).

Darin zamona tavoze nishonal xorist,  
Madon zi xori takabbur gali tagofullmo

(Bu zamonada izzat-hurmat xorlik alomatdur. Ammo sen bizning kishilar ko'rib o'zini ko'maslikka solgan gulimizni takabburlik tikonidan deb bilma). Shoir mehnatkash xalqni talab, qo'rqitib, «Xayvon kabi (meira) semirib yurgan qozilardan, shafqatsiz va rahmsiz beklardan nafratlanadi. Ular maishat qilib semirganlari bilan bugun-erta o'lib ketib, qurtlarga yem boladilar, deydi:

Ko'p yebon xayvon kabi tanni semirturmoq nedir,  
Kim bu kun yo tongladur aylar tanovuloni qurt.

Shoirning ta'biriga, qozining xam zo'r berib xalqdan mol yig'ishi- do'zaxda o'z jonining yoqilishi uchundir:

Jonni yoqarga do'zax aro jam etar otasho,  
Qoziki mol yig'ar etib mayli itisho.

Beklaring esa muxtoj kishiga biror narsa in'om etib, ketidan maqtanib, minnat qilib yurishi saxiylikdan bo'lmanidek, bergenini qaytarib olishi xam nokaslikdirki, bunday qiliq'i uchun u la'natga sazovordur:

Falonbek kim birovga qildi in'om,

Valekin ayladi izvori minnat.

Agar ul yona beklik etsa da'vo,

Qulur o'ziga bo'lmas ishni tuxmat

Vagar bu nokas ul in'omin olsa,

Muningdek nokasi dunyoga la'nat.

Zohid doimo el sayxi uchun xar xil xiyla-nayranglar ishlatib yuradi:

Zoxid el sayxi uchun ko'rgunir afsunlarkim,

Oning oldida durur somiri andoxki buzov.

Nokaslardan in'om olgan zohid o'sha nokaslarning manfaatini yoqlaydi, xalqqa xiyonat qiladi. Agar zohidning zarracha uyati bo'lganda edi, bu uyat uni eritib, suv qilib yuborar edi:

Tafashmoqdir shing rokasta nokastar in'omi uchun doimo,

Seni qilgay edi bo'lsa uyoting bu taloshdin suv

Cheklangan dunyoqarashga ega bo'lgan shoir feudalizm tuzumining asl moxiyatini tushunib yetmaydi. Shu shoir tuzumning xech o`zgarishsiz xalq manfaatiga xizmat qilishini istar edi. Buning uchun esa u hukmon doiralarning, ayniqsa, xonning ma'rifatparvar, xalqparvar kishi bo'lishi kifoya, deb bilar edi. Shu sababdan shunday bir adolat qonuni tuzilsinki, zulm rasmi jahonda qolmasin yo'qsa xalqqa qaratib yoqilgan zulm o'ti-shulasining tutuni bilan sening ro'zg'oring ham qop-qora bo'lishi turgan gap; g'ariblarga vafo qilish beva-bechoralarni shodlantirish bilan davlating boqiy bo'ladi. Podshoxlik ne'matini topgan kishi ayni zamonda cho'ponlik hunarini ham kasb qilsin, gar u raiyatga tishini qayraydigan bo'lsa, qo'yga qurt yopishganday bo'ladi», degan fikrlarni ilgari suradi.

Qilmagay al shohla dudi ro'zgoring qopp-qora.

Gar tilar sen joxu iqbolingni, ey shox mustadom,

Zum o'rin, ey shox, yoqma xalq aro kim nogaxon,

Bevalari shod tut, aytom boshini, siypalab

Munis adolat mulkini tuzatib: o'z qo'l ostidagi fuqaroning och-toqligidan xabardor bo'lgan xukmdorni shox deb biladi:

«Munis ul-ushshoq»da Xudo, Payg'ambar va islom dini aqidalarini maqtab yozilgan anchagina she'rlar ham bor. Lekin shoir o'z e'tiqodi doirasida Xudoni zulmga qarshi dushman deb tushuntiradi va shu yo'l bilan o'z zamonidagi shohlami adolatga, elga rahmdil bo'lishga, shoxi xaqiqiyning (Xudoning) jazosidan qo'rqishga chaqiradi:

Exson qil elga, ey shaxu, og'rinma kimsan,

Kim nekir badge shoki xaqiqiy berur jazo

Munis islom dini va uning shari'at qoidalariga ham shu nuqtai nazaridan yondoshadi, ya'ni islomni xalq og'irini yengil qilishga moslashtirmoqchi bo'ladi. Shoир uning masjidi, shayxi va zoxidlarga xam e'tiqod qilmaydi: shayx zoxidlarning riyonayranglaridan xazar qiladi: masjidda zoxidning kasofatidan, shayxning aldovidan qochib, mayxonaga borishni afzal ko'radi:

Masjidingda fayz yoq, zoxid, xuzuringda futo's,  
Yetkuzur sog'iy futux el ko'ngliga mayxona fayz  
Mayxona sari borki, sharofatlar ondadur  
Masjidga kirma zoxid kasofati.  
Borma masjid sori kim ro`y berur  
Sanga yuz nav rivolat onda  
Shayxlar pandidin o'ldim tangdil,  
Lutfila bo'l dilkusho, ey mugbacho.

Shoir o'z devonini «Munis ul-ushshoq deb atadi, chunki bu devondagi ko`pchilik she'rlar (g'azallar) ishq-muhabbat mavzusidadir. Shoир ishqiy g'azallarida o'zini oshiqlarga qiblanoma» deb ataydi; ma'shuqaning yuzini quyoshga, o'zini uning oldidagi zarraga tenglashtiradi; dilbarining jafokor emas, balki vafodor va rahmdil bo'lishini istaydi; dilbar sarv qomatining soyasini jannatdagi tubos (go'zal daraxtlardan va xoni ko'yinl jannat gulshanidan ortiq deb biladi. Shoирning fikricha, muhabbat ikki tomonidan bo'lmasa, ikki o'rtadagi muhabbat mo'tadil rivoj topmaydi, balki baxt yo'liga g'ov bo'ladi. Ikkala tomonning ham sevishi va sevilishi ishqning asosiy shartidir.

Hamisha boshim uraman yo'ling sari sanamo  
Magarkim ishq aro bo'l mish men elga qiblanoma.  
Orazing gar bo'lmasa xusn avji uzra aftob.  
Nechun olingda qilurmen zarra yanglig' iztirob.  
Soyal sarv qading bordir ortiq dilbaro,  
Hoki qo'ying gulshani Junnadin ortiq dilfitob.  
Vafoya lutf la Munisni xurram ayla mudom  
Jatova javr ila ko'p qilding oni ozurda.  
Muxabbat ikki yondin bo'lmasa qo'shish abas bo'lgay  
Iloxi ul pari ko'nglini ishqqa giriftor et.

"Munis ul-ushshoq da she'r va shoirlar, adabiyot masalalari xaqida yozilgan ayrim baytlar va badiiy parchalarni ham uchratish mumkin. Munis yaxshi she'rni sel hodisasidan ham buzilmaydigan maxkam imorat bilan tenglashtiradi; uni kishining farzandidan xam afzalroq bo'lgan abadiy meros deb baxolaydi:

Sher-ul ne'mat erurkim, xar necha bazm etsalar.  
Lazzati ortar dog'i qadriga topmas nuqs rox.  
She'rul maxkam timor andurki, sel xodiso

Mylamas xar necha bo'lsa tund bonyodin tabox.  
Balki she'r afzaldurur farzandinkim she'rni,  
Nasli bagidin baqolog'idur derail Intibox.  
Shoir she'rni jamiyatga ta'sir kuchi va tez tarqalishi jixatidan tig'i dudamga  
(xanjarga) o'xshatadi:

She'r ul tig' dudamdurkim, jaxonni fatx etar....

Munisning Navoiy va uning merosiga qanchalik muxabbati borligini «Devon»dagi ko'pgina she'rlaridan anglab olish mumkin. Bu she'rlardan ma'lum bo'lishicha, Munis fikrni ta'sirchan, mukammal ifodalashda, so'z san'atini, vazn, qofiya va adably priyomlarni yaxshi bilishda Navoiy singari moxir bo'lishni istab, amalda, asosan, bir-biriga juda yaqin bo'lgan ikki yo'lni:

- a) Navoiy g'azallariga muxammaslar bog'lash.
- b) Navoiy g'azallariga naziralar aytish yo'llarini tutadi.

Xullas zo'r berib qilgan ijodiy mexnat natijasida ish oddiy xavaskordan yirik adiblarga, oddiy kitobxonadan tortib adabiyot axligacha manzur bo'ladigan baytlar yaratishga qodir bo'ladi, Misollar: Shoiring tubandagi baytlari talmex san'ati (tasvirlanayotgan obyektga moslab bayt orasida biror xikoya yoki qissaga ishora qilib o'tish) bilan yaratilgan:

Nuri ruxsoring bo'lib,  
Yusuf jamoli ziynati,  
Didam ya qubga gardi quduming to tiyo  
Balolar ichra kim solmish firoqing,  
Erurmen sabr qilmoqlikka Ayyub.

Shoiring quyidagi misralari tazmin san'ati (o'z she'rining ta'sir kuchini yanada oshirish uchun biror mashxur shoirdan misra yoki bayt keltirish) bilan yaratilgan:

Ey qoshing mexrobi tarx aylab yangi oy xay atin.  
Vaqt ango qilmish taloyin xayli naqdi toatin  
Chun bu matla fikriga topdi xayolim extisos  
Ko'ngluma soldi xavas bu nav' da'vi naxvatin.  
Kim kishi bo'lgaymu kim, desa bu matлага javob  
Ko'rgazub arzi balogat ichra ta'b'i xuddatin

Munis o'quvchini qiziqtiradigan, tasvirlanayotgan obyekt xarakteriga mos tashbexlar xam ishlatgan.

Ozaringdur ganji xusnu onda zulfing ajdaxo,  
Bo'lmadi bu ajdaxodin topgon ul gajingraxo.

Tazod:

O'tururlar meni dam ko`zu qoshi talashib,  
Tirguzirlar ikki jon bash dudog'i yarashib.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o’rnida shuni ayrtish joizki, Munisning asosiy adabiy merosi — 1815—20 yillarda tuzilgan „Munis ul-ushshoq“ („Oshiqlar do’sti“) devoni g‘azal, muhammas, qasida, ruboiy, qit’a va boshqa janrlardan iborat bo‘lib, 20000 dan ziyod misrani o‘z ichiga olgan. U xattotlar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilib, 1880-yilda Xiva toshbosmasida nashr etilgan. Munis Navoiyning „Mezon ul-avzon“, „Holoti Sayyid Hasan Ardascher“ asarlarini kitobat qilgan (1794, 1797). Ayniqsa, „Mezon ul-avzon“ni oldingi ayrim xattotlar yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatib, savodli ko‘chirgan. Bu uning aruz ilmining xos bilimdoni ekanligidan ham dalolat beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Majidiy. Munis Xorazmiy. Jurnal „Guliston“ 1935, № 3;
2. V.Zohidov. O‘zbek adabiyoti tarixidan. — T.: 1961;
3. N.Jumaev. Munis g‘azaliyoti. -T.: 1991. `